

“ZARBULMASAL” ASARIDAGI MAJOZIY OBRAZLAR TALQINI

To‘qsonova Samiya

Ogahiy nomidagi ijod maktabining tarbiyachi-pedagogi

Annotatsiya: Bu maqolada “Zarbulmasal” asaridagi majoziy obrazlar ustida tadqiqot olib borilgan. Maqolada ilgari surilgan ilmiy qarashlar, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi obrazlar tizimi, hayvonlar va qushlar obrazi, ulardagi majoziy ma’no va asar mohiyatini yoritib berishda majozning tutgan o’rni kabi masalalar tahlil qilinib o’rganilgan.

Kalit so‘z: Majoz, "Zarbulmasal" asari, obraz, ramz, ko‘chim, badiiy talqin, masal, hayvonlar va qushlar obrazi.

Adabiyotshunoslikda ijodkorlar asarlarida ifodalayotgan g’oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy- axloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lamini ochib berishda majozning ahamiyati katta. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan majoziy obrazlarni tahlil qilish, majozning badiiy adabiyotdagi ahamiyatini o’rganish bugungi kun adabiyoti uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki mumtoz adabiyotda majoz namunalari ko‘p uchraydi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida majoziy yo‘lda yozilgan badiiy asarlar ichida eng mashhuri Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridir. “Bu asar sujeti hikoyachilik asosiga qurilganligi bilan o‘zbek adabiyotidagi Rabg‘uziy va Xoja qissa-hikoyatlariga, qushlar, hayvonlar tilidan so‘zlash, pandnomalik xususiyati jihatidan esa, Sharqda keng tarqalgan “Kalila va Dimna” asariga yaqinlashadi”. “Zarbulmasal” majoz asosiga qurilgan qissa bo‘lib, unda turmush voqea-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning fe‘l-atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Unda murakkab qatlamli majozga duch kelamiz. “Odam obrazlari o‘rnida qushlarning kelishi birinchi majoz bo‘lsa, ular tilidan Xolboqi misgar, Yodgor po‘stindo‘z singari kishilarning, tuya, chayon, toshbaqa singari hayvon-hasharot timsollarining turli naql, rivoyatlar keltirib so‘z yuritishi ikkinchi majoz, bu timsollar nutqida keltirilgan ifodaning ko‘chma ma’nolari yana bir majoz - majoz ichida majozdir.“Zarbulmasal” asarida ko‘zga tashlanuvchi badiiy obrazlar o‘zlarining tur va tabiatlariga ko‘ra, uch xildir:

- 1.Qushlar obrazi.
- 2.Hayvon - hasharotlar obrazi.
3. Kishilar obrazi”.

Qushlar obrazlari asarning bosh rejasiga qo‘yilgan asosiy obrazlar bo‘lib, hayvon – hasharot va kishilar obrazlari qushlarning o‘zaro suhbatlarida ular tomonidan keltirilgan naql-u rivoyatlarda namayon bo‘ladi. Qushlarning tur va nomlari, ularning xatti-harakatlari asarga shu qadar tabiiy, jonli mazmun bag‘ishlaydiki, uni o‘qiyotgan kishi qushlar orasida bahs ketayotganini unutib, qushlar dialoglarini odamlar suhbatlari

deb qabul qiladi. Asarning asosiy sujet chizig'i Kaykubod xarobalarida istiqomat qiluvchi Yapaloqqush bilan Boyo'g'li oralaridagi qudachilik munosabatlari va shu bilan bog'liq hayotiy voqea – hodisalardir. Adib o'sha davrdagi qudachilik munosabatlari va rasm-rusumlarini berish uchun Boyo'g'li va Yapaloqqushni tanlab olgan. "Ko'rqush sovchi, Kordon xazinachi, Kuykunak xizmatkor, Turumtoy miroxo'r, Sho'rnul chopar, Malikshohin xiyla odil, o'z yaqinlariga homiylik qiluvchi shoh (Umarxon nazarda tutilgan bo'lishi mumkin), Kulonkir sulton kuyov, kelin Gunashbonu oyim timsollarida ifodalanadi. Boyo'g'li bilan Yapaloqqush o'ziga mahliyo qo'ygan, mulkdor shaxslar; Ko'rqush, asosan, fahm-farosatli, ishbilarmon, xiyla donishmand shaxs. Bu qushning ko'zi ko'rmaydi. Adib ko'zi ojizlarga xos hushyorlik va donolikni uning timsolida beradi. Kuykunakning jussasi kichik, biroq u gapga chechan. Boyo'g'li mol-u mulkka xaris, o'ta xasis va hokazo".

"Zarbulmasal" majoziy asar bo'lishiga qaramay, unda XIX asr muhiti voqealari tasvirlanadi. "Yozuvchi bu asarda o'sha davrda bo'lib o'tayotgan urushlarning dahshatli oqibatlarini ochib tashlaydi. Asarda bu kabi urushlarning el-yurtga keltirgan qashshoqlik va xarobaliliklari xarakterli tafsilotlar va majoziy obrazlarda yorqin aks ettirilgan. Yapaloqqush o'zaro to'qnashuvlarda boyligi qo'ldan ketgan, qo'rg'oni buzilgan, Gulxaniy aytganidek, "oti ulug', suprasi quruq" boylarning majoziy obrazidir. Yapaloqqush misolida o'sha davrdagi boylarning shuhratparastligi, ochko'zligi, maqtanchoqligi ochib tashlanadi. Kulonkir sulton ham usti yaltiroq ichi qaltiroq amir-amaldorlarning majoziy obrazidir. Asarda Kulonkir sultonning zo'ravonlik bilan el-yurti talab orttirgan boylilari hisobiga shohona saroy qurib, tashqi dabdaba va zeb-ziynatlarga berilishi qattiq tanqid qilingan. Boyo'g'li ham o'sha davrdagi shuratparast boylarning majoziy obrazidir. Qalin voqeasi bilan yozuvchi Boyo'g'lining faqat mustabid feodal ekanligini emas, balki qizini mol-dunyoga sotgan shafqatsiz, bemehr ota ekanligini fosh etadi".

"Zarbulmasal" da "Tuya bilan bo'taloq", "Maymun bilan Najjor", "Toshbaqa bilan Chayon" kabi masallar keltirilgan.

"Tuya bilan bo'taloq" masalida tuyaning majoziy obrazi misolida muallif erk-u ixtiyoridan mahrum etilgan kishilarning alamli qismatini aks ettirgan. "Mehnatkash xalqning og'ir hayoti va mehnati, huquqsizligi va nochorligi "Tuya bilan Bo'taloq"da o'ziga xos badiiy tasvirga ega. Gulxaniyning tasvirlashicha Tuya hayotda ezilgan, erksiz, og'ir mehnat bandasi hamda qul qismatiga mahkum etilgan mehnatkashlarning majoziy obrazidir. Bo'taloq esa ona sutiga ham to'yolmay, og'ir, mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalang'ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkash bolalarning timsolidir".

"Toshbaqa bilan Chayon" masali orqali Gulxaniy kishilarni hushyorlikka, zolimlarga qarshi qattiqqo'l, sezgir, shafqatsiz bo'lishga undaydi, dushmanga ayovsiz bo'lish kerakligini uqtiradi. Masalda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xarakter gavdalanadi: bulardan Toshbaqa rahmdil, kishilarga yaxshilik qiluvchi, ulardan yordamini ayamaydigan kishilar obrazidir. Chayon esa yaxshilikka yomonlik qiluvchi, chayonsifat kishilarning majoziy obrazidir.

"Maymun bilan Najjor" masalida Maymun hamda Najjor obrazi beriladi. Najjor aqlli, usta hunarmand, o'z kasbi, mehnati bilan kun ko'ruvchi shaxs. "Muhammad Sharif Gulxaniy Najjor obrazi orqali hunar ahlini ulug'laydi. Maymun esa biror ishning uddasidan chiqqa olmaydigan, maqtanchoq shaxslarning majoziy obrazidir. Ushbu masalda har qanday hunarning o'ziga xos sir- u sinoatlari yillar davomida o'zlashtiriladigan nozik jihatlari bo'lishini anglamaguncha kishi biror bir natijaga erishishi mumkin emasligi ochib berilgan".

"Zarbulmasal" qiziqarli sujet chizig'iga ega, folklor namunalariga boy, o'ta xalqchil majoziy asar sifatida o'zbek adabiyotining nodir namunasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gulxaniy "Zarbulmasal" (nashrga tayyorlovchi S.Dolimov).- Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1972-yil.
2. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari. Tanqidiy matn. – Toshkent 1976.
3. Is'hoqov F. Gulxaniy. O'zbek adabiyoti tarixi: 5 tomlik, IV tom. – Toshkent, 1979-yil.
4. Orzibekov R. O'zbek adabiyot tarixi (XVII-XIX(I yarmi) asrlar). O'zbekiston yozuvchilar Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – T.: 2006-yil, 155-bet.
5. S.Ahmedov, Sh.Rizayev, R.Qo'chqorov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 6- sinfi uchun darslik. II qism T.: "Ma'naviyat" 2017, 43-45-betlar.